

CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA METODLARNING
ZARURIYATI

Ibaydullayeva Saodat Isroil qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi,

Inoyatov Odiljon Sobitovich

ilmiy rahbar Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy metodlar hamda uni chizma geometriya fanida qo'llashning ahamiyati to'g'risida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *metodologiya, texnologiyalar, ta'lim, tarbiya, metodlar, o'yin darsi, intellektual o'yinlar, frazalar.*

Chizma geometriya fanini o'quvchilarga o'rgatishda hozirgi kunda turli zamonaviy metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Texnologiya asrimizning ajralmas bir qismi bo'lib qolmoqda. Shuning uchun texnik bilimlarni mukammal egallashning shartlaridan biri grafik savodxonlikni oshirish, ya'ni chizmalarni o'qish va bajarishni bilishdir. Shu boisdan chizmalar chizishning asosi bo'lgan chizma geometriya fanini chuqur o'rganish talab etiladi. Chizma geometriya matematikaning bir tarmog'i hisoblanib, uch o'lchamli fazodagi obyektlarning tekislikdagi grafik modelini qurish asoslarini o'rganadi. Bu esa oliy ta'lim tizimida chizma geometriyaning naqadar muhimligini belgilaydi.

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir. Har soha o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Hozirgi zamon talabi, pedagogik yo'nalishda darsni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda. Bular:

1. Pedagogik kuzatish metodi;
2. suhbat metodi;
3. anketa metodi;
4. intervyu metodi;
5. talim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi;
6. test metodi;
7. pedagogik tahlil metodi;
8. bolalar ijodini o'rganish metodi;
9. pedagogik tajriba metodi;
10. matematik-statistik metod.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkomiyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

VII asrdan XV asrgacha o'rta Osiyoda fanning barcha sohalarida katta ilmiy yutuqlarga erishilgan. Masalan, mashhur olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) yunon olimi Ptolemey tomonidan bayon qilingan ba'zi masalalarni aniq emasligini chizmalar orqali isbotlab bergan. U o'z asarlarida turli mamlakatlar, dengiz va tog'lar, katta daryo va ko'llarning xaritalarini tasvirlagan. Olimning chizgan xaritalaridan o'ntasi bizgacha yetib kelgan.

Abu Nasr Forobiy (873-950) o'zining geometrik yasashlarga doir asarida konstruktiv geometrik masalalarni yechishni bayon etgan. Ayniqsa, o'zgarmas pargar yordamida geometrik masalalar yechishni chizmalar orqali batafsil bayon etgan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) shar ichida besh xil muntazam ko'pyoqliklar yasash mumkinligini chizmalar orqali isbotlab bergan. Bular noriy – to'rtyoqlik (tetraedr), orziy – oltiyoqlik (geksaedr), havoiiy – sakkizyoqlik (oktaedr), falakiiy – o'n ikkiyoqlik (dodekaedr), moiiy – yigirmayoqlik (ikosaedr) lardir .

Fransuz olimi va davlat arbobi Gospar Monj (1746-1818) o'z davrigacha chizmachilikka oid bo'lgan barcha bilimlarni umumlashtirib, 1799-yilda "Chizma geometriya" kitobini bosmadan chiqardi. Shundan beri chizma geometriya Monj metodi deb ham yuritiladi. Monj kitobida chizmachilik grammatikasi chizma geometriya atroflicha bayon qilingan. Bu davrda chizma geometriyaning mohiyati juda katta bo'lib, Monjning o'zi "Chizma dunyodagi texnika bilan shug'ullanadigan barcha millatlar uchun tushunarli til, ya'ni texniklar tilidir", degan edi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib aytdigan bo'lsak har bir sohaning o'z mutahassisini yetishib chiqishi uchun avvalambor, pedagogika sohasida izlanishlarimizni yaxshilashimiz yana bu borada ko'plab izlanishlar olib borishimiz kerak. Metodik qo'llanmalarni chuqur izlashimiz bu borada izlanishimizni davom ettirishimiz maqsadga muvofiq boladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat standartlari. GOSTlar. KXYaT. Asosiy qoidalar.

2. Azimov T.D. Chizma geometriya. Oliy texnika o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: ToshDTU, 2005.
3. Xorunov R., Akbarov A.A. Chizma geometriyadan masalalar yechish metodlari. T.: "O'qituvchi", 1995.
4. Azimov T.D. "Chizma geometriya" fanidan ma'ruzalar matni. T.: ToshDTU, 2005.
5. Azimov T.D. va boshqalar. Chizma geometriyadan amaliy darslar uchun o'quv qo'llanma. T.: ToshDTU, 2003.